



**NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISHDA MEDIATSIYA INSTITUTI
BORASIDA AYRIM XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI TAHLILI
VA O‘ZBEKISTONDA SAMARALI JORIY ETISH**

Mahmudov Otabek Bunyod o‘g‘li

Ma‘ripjonova Lobar Saidakbarovna

Ma‘murov Temur Abduhalim o‘g‘li

Malikov Iskandor Zulqaynar o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universiteti Yurisprudensiya: biznes huquqi

4-bosqich talabalari

***Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasida nizolarni muqobil hal etish usuli sifatida mediatsiya institutining shakllanishi, huquqiy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Mediatsiyaning xorijiy mamlakatlarda qo‘llanish doirasi hamda sud tizimidagi o‘rni milliy qonunchilik normalari asosida yoritib berilgan. Shuningdek, mediatsiyaning fuqarolik, oilaviy, mehnat va tadbirkorlik nizolarini hal etishdagi afzalliklari, sud yuklamasini kamaytirishdagi roli va rivojlanish istiqbollari ilmiy-huquqiy jihatdan asoslab beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** mediatsiya, muqobil nizolarni hal etish, mediator, suddan tashqari kelishuv, huquqiy islohotlar, xorijiy mamlakatlarda mediatsiya.*

Hozirgi kundagi chet el davlatlarining ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning murakkabligi nizolar sonining ortishiga sabab bo‘lmoqda. Avvaldan qo‘llanilgan sud tizimi orqali nizolarni hal etishda uzoq vaqt talab qiladi. Bundan tashqari, katta xarajatlar bilan birga taraflar o‘rtasidagi munosabatlarning yanada keskinlashuviga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun hozirgi kunda nizolarni xal etishda mediatsiya institutiga bo‘lgan talab ortib bormoqda.



Mediatsiya jarayonida uchinchi shaxs ya'ni mediator nizoda ishtirok etib tomonlar o'rtasida muloqotni yo'lga qo'yadi, muammoning yechimi aniqlashga yordam beradi. Chet el davlatlarning tajribasi mediatsiya institutining samarali ishlashi uchun huquqiy asoslar, malakali mediatorlar instituti va jamiyatda murosaga qilishga asoslangan madaniyatning shakllanganligi muhim o'rin egallaydi. Yevropa davlatlaridan Buyuk Britaniya, Germaniya va Osiyo davlatlaridan Xitoy, Yaponiya va Singapur kabi davlatlarda mediatsiya insituti keng qo'llanilib, turli xil sohalardagi nizolarni sudgacha bo'lgan davrda hal etish samarali ekanligini ko'satmoqda. O'rta Osiyo mamlakatlarida ham mediatsiya an'analari qadimdan shakllangan va hozirgi kundagi huquq tizim bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda. Masalan, Xitoyda nizolarni murosaga asoslangan holda hal etish uzoq tarixga ega. Mediatsiya insituti Xitoy xalqi hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Yaponiyada Ko'plab nizolar sudga yetib bormasdan hal etiladi

GERMANIYA DAVLATIDA MEDIATSIYA INSITUTI

Germaniya davlatida nizolarni taraflar o'zaro kelishuv asosida hal qilish g'oyasi fuqarolik protsessi kabi qadimiy xisoblanadi. Nemis protsessual huquqi nazariyasi va amaliyoti uzoq vaqtdan beri nizolarni turli shakllarda yarashtirish yo'li bilan hal qilish imkoniyatlarini o'rganib kelgan. Mediatsiya — ya'ni neytral (manfaatdor bo'lmagan) uchinchi shaxs ishtirokida nizoni tartibga solish va hal etish usuli sifatidagi ilmiy tadqiqotlar Germaniyada XIX asrdayoq paydo bo'lgan. Germaniya qonun chiqaruvchisi nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish tartibini



qonunchilikda mustahkamlashga juda ko‘p uringan. Yarashtirish g‘oyasi ilk bor Germaniyada 1879-yildagi Zivilprozessordnung (bundan keyin — ZPO) da ilgari surilgan. Germaniya imperiyasi davridan buyon butun mamlakat hududida amal qilib kelayotgan ushbu protsessual kodeks nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishning uchta holatini nazarda tutgan:

Birinchisi, sudya sud muhokamasining istalgan bosqichida tomonlarga nizoni tinch yo‘l bilan hal qilishni taklif qilishi mumkin

Ikkinchisi, ishni birinchi instansiya sudida ko‘rib chiqishda sudyaga yarashtirish tartib-taomillaridan foydalanish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar berilgan

Uchinchisi, oilaviy nizolarni ko‘rib chiqishda yarashtirish tartib-taomillaridan majburiy foydalanish belgilangan

Germaniya qonun chiqaruvchisi bir necha bor nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish uchun qonunchilikka o‘zgartirish kiritishga harakat qilgan. Bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilgan va mediatsiya institutining asta-sekin rivojlanishiga olib kelgan. Zivilprozessordnung (ZPO) kodeksida Germaniya tarixida birinchi marta nizolarni yarashtirish (primitiv mediatsiya shakli) mexanizmlarini rasmiylashtirilgan.

1944-yildagi harbiy farmonga ko‘ra, majburiy yarashtirish tartibi bekor qilingan. Bunga asos 1925-yildagi Emminger islohoti amal qilgan davrda yarashtirish g‘oyasi jamiyatda keng tarqalib ulgurganligi uchun bunday rasmiy tartibga ehtiyoj sezilmagan. Shu sababli yarashtirish tartibi allaqachon



institutsional shaklga ega bo‘lganligi sababli bekor qilgan. Lekin ushbu farmonga ko‘ra, sudya nizoni tinch yo‘l bilan hal etishga har tomonlama harakat qilishi shart bo‘lgan. Ayrim **okkupatsiya** zonalarida yarashtirish tartibini qo‘llash zarurati saqlanib qolgan. Yarashtirish tartibi 1950-yildagi Gesetz zur Vereinheitlichung des Rechts (Huquqni unifikatsiya qilish to‘g‘risidagi qonun) bilan rasman bekor qilingan. Mediatsiyaning Germaniyada rivojlanish jarayoni XX asr boshidagi tarixiy voqealar, Ikkinchi jahon urushi oqibatlarini sababli uzilib qolgan, ammo sud muhokamasidan qochishga qaratilgan nizolarni hal etishning yangi usullariga bo‘lgan qiziqish 1970-yillardan boshlab yana tez fursatlarda ortib borgan.

Germaniya hududining ikki qismga bo‘linishi — Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasiga bo‘linib ketishi yagona huquqiy davlat sifatida rivojlanishga to‘sqinlik qildi. Aynan, totalitar tuzum hukmronlik qilgan Germaniya Demokratik Respublikasi hududida jamiyat hayotining barcha sohalari sovet davlatining nazorati ostida bo‘lgan, unda erkin iroda bildirish va shaxs erkinligini ifodalash amalda taqiqlangan edi.

Shu sababli Germaniyada mediatsiya o‘z rivojining yangi bosqichiga faqat 1980-yillarning o‘rtalarida, Germaniyadagi Amerika tashkilotlari faoliyati ta’siri ostida kira boshladi. 1982-yilda Bad-Bol shahrida nizolarni hal etishning muqobil usuli sifatida mediatsiyaning ilk taqdimoti o‘tkazilgan, biroq u katta muvaffaqiyat qozona olmagan. 1992-yilda oilaviy mediatsiyani tashkil etish va o‘tkazishga ixtisoslashgan ilk tashkilot — Bundesarbeitsgemeinschaft für Familienmediation (BAFM) tashkil etildi. Ushbu tashkilot mediatsiya jarayonini tashkil etish va o‘tkazish hamda mediatorga qo‘yiladigan asosiy talablarni belgilab berdi.



Shu yilda voyaga yetmaganlarga yordam ko'rsatish to'g'risidagi qonun qabul qilinib, unda oilaviy nizolarni hal etishda yarashtirish tartib-taomillarini qo'llash, shuningdek, vositachi sifatida voyaga yetmaganlar ustidan vasiylik organlarining ishtiroki nazarda tutilgan. 1993-yildan boshlab Germaniya Adliya vazirligi va Oila siyosati vazirligining oilaviy mediatsiyani joriy etish va o'rganishga qaratilgan qo'shma loyihasi natijasida mediatsiyani ilmiy tadqiq etish va o'qitish bilan Hagen shahridagi sirtqi ixtisoslashgan universitet shug'ullana boshladi. Mediatsiya masalalari bo'yicha Adliya federal vaziriga maslahat berish maqsadida Mediatsiya bo'yicha maslahat kengashi tashkil etilishi kerak degan xulosaga keladi. Kengash a'zolari va ularning o'rinbosarlari Adliya federal vaziri tomonidan besh yil muddatga tayinlanadi va ayta tayinlashga ruxsat etilishi ko'zda tutiladi.

“Bundesrecht konsolidiert: Gesamte Rechtsvorschrift für Zivilrechts-Mediations-Gesetz, Fassung vom” qonuni ya'ni “Konsolidatsiyalangan federal huquq: Fuqarolik huquqi bo'yicha mediatsiya to'g'risidagi qonunning to'liq matni” ko'ra:

“Zur Beratung des Bundesministers für Justiz in Angelegenheiten der Mediation ist ein Beirat für Mediation einzurichten. (2)Die Mitglieder und Ersatzmitglieder des Beirats hat der Bundesminister für Justiz für die Dauer von fünf Jahren zu ernennen. Eine wiederholte Ernennung ist möglich. Zur Vorbereitung der Ernennung hat der Bundesminister für Justiz Vorschläge einzuholen 1. für zwölf Mitglieder (Ersatzmitglieder) von repräsentativen Vereinigungen auf dem Gebiet der Mediation; 2. für je ein Mitglied (Ersatzmitglied) a) vom Berufsverband Österreichischer Psychologinnen und Psychologen, vom Österreichischen Bundesverband für Psychotherapie sowie der SJIF:5.219



Vereinigung der österreichischen Richter, b) von der Bundesministerin für Bildung, Wissenschaft und Kultur, der Bundesministerin für Gesundheit und Frauen, vom Bundesminister für soziale Sicherheit, Generationen und Konsumentenschutz sowie vom Bundesminister für Wirtschaft und Arbeit, c) von der Bundesarbeitskammer, der Wirtschaftskammer Österreich, der Österreichischen Notariatskammer, dem Österreichischen Rechtsanwaltskammertag, der Kammer der Wirtschaftstreuhänder sowie von der Bundeskammer der Architekten und Ingenieurkonsulenten; 3. für zwei Mitglieder (Ersatzmitglieder) aus dem Bereich der wissenschaftlichen Lehre und Forschung auf dem Gebiet der Mediation von der Österreichischen Rektorenkonferenz. (3) Repräsentativ im Sinne des Abs. 2 Z 1 ist eine Vereinigung, der unter Berücksichtigung des fachlichen Tätigkeitsbereichs eine ins Gewicht fallende Anzahl an in der Mediation tätigen Mitgliedern angehört und die bundesweit oder in einem überwiegenden Teil des Bundesgebiets wirkt. (4) In die Vorschläge sind möglichst Personen aufzunehmen, die über praktische Erfahrungen oder theoretische Kenntnisse auf dem Gebiet der Mediation verfügen. Bedacht zu nehmen ist auch auf eine Vertretung der Belange jener, die Mediation in Anspruch nehmen oder hierfür besonders in Betracht kommen “ Ushbu qonunni tarjima qilsak:

Mediatsiya sohasida faoliyat yurituvchi vakillik xususiyatiga ega birlashmalardan — o‘n ikki nafar a‘zo (va o‘rinbosarlar);

Har biridan bittadan a‘zo (va o‘rinbosar):

a) Avstriya psixologlari kasaba uyushmasidan, Avstriya psixoterapiya federal uyushmasidan hamda Avstriya sudyalari birlashmasidan;



b) Ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha federal vazirdan, Sog'liqni saqlash va ayollar masalalari bo'yicha federal vazirdan, Ijtimoiy xavfsizlik, avlodlar va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha federal vazirdan hamda Iqtisodiyot va mehnat bo'yicha federal vazirdan;

c) Federal mehnat palatasidan, Avstriya iqtisodiyot palatasidan, Avstriya notariuslar palatasidan, Avstriya advokatlar palatalari uyushmasidan, buxgalteriya (iqtisodiy maslahatchilar) palatasidan hamda arxitektorlar va muhandis-maslahatchilar federal palatasidan;

Mediatsiya sohasida ilmiy ta'lim va tadqiqot bilan shug'ullanuvchi doiradan ikki nafar a'zo (va o'rinbosar) — Avstriya rektorlar konferensiyasi tomonidan tavsiya etiladi. Bundan tashqari ushbu qonunda “**Ausschuss für Mediation**” (**mediatsiya qo'mitasi**) to'g'risida ma'lumot berib o'tilgan. 7.

“Der Beirat hat aus seinen stimmberechtigten Mitgliedern für die Dauer von fünf Jahren einen Ausschuss, bestehend aus fünf Mitgliedern samt Ersatzmitgliedern, zu wählen sowie einen Vorsitzenden und dessen Vertreter zu bezeichnen. Die Funktionsperiode endet mit der Bestellung eines neuen Ausschusses. Sind ein Mitglied oder dessen Ersatzmitglied ausgeschieden, so hat der Beirat für den Rest der Funktionsperiode einen Ersatz zu wählen.

Der Vorsitzende hat die Mitglieder des Ausschusses auf Ersuchen des Bundesministers für Justiz zu Sitzungen einzuberufen. Abs. 2 erster und zweiter Satz sowie Abs. 3 gelten entsprechend. Die Mitglieder haben Anspruch auf eine dem Aufwand angemessene Vergütung für ihre Tätigkeiten “

Ushbu qonunda aytilishicha, “Kengash (Beirat) o'zining ovoz berish huquqiga ega a'zolari orasidan besh yil muddatga besh nafar a'zodan iborat
SJIF:5.219



qo‘mita (ularning o‘rinbosarlari bilan birga) saylanadi. Qo‘mita raisi va uning o‘rinbosarini kengash tayinlaydi. Vakolat muddati yangi qo‘mita tayinlanishi bilan tugatiladi. Agar a‘zo yoki uning o‘rinbosari qo‘mita tarkibdan chiqsa, kengash vakolat muddatining qolgan qismi uchun yangi a‘zo saylashi mumkin. Rais Federal adliya vazirining talabiga ko‘ra qo‘mita a‘zolarini yig‘ilishlarga chaqirishi kerak. A‘zolar o‘z faoliyatlari uchun sarf-xarajatlarga mos ravishda haq olish huquqiga ega” ekanliklari belgilab qo‘yilgan.

Bundan tashqari qonunda tomonlarning majburiyat **“Pflichten gegenüber den Parteien”** ham belgilab qo‘yilgan.

Agarda nizoda tomon vakili, maslahatchi yoki qaror qabul qiluvchi organ sifatida ishtirok etsa yoki avval ishtirok etgan bo‘lsa, u ushbu nizoda mediator sifatida faoliyat yuritishi mumkin emas. Shuningdek, mediator mediatsiyaga taalluqli bo‘lgan nizoda tomonlarga vakillik qilishi mumkin emas. Bundan tashqari ularga maslahat bera olmaydi va qaror qabul qilishi mumkin emas. Ammo, mediatsiya yakunlangandan so‘ng esa, o‘zining boshqa kasbiy vakolatlari doirasida va barcha tegishli tomonlarning roziligi bilan mediator mediatsiya natijalarini amalga oshirishda ishtirok etishi mumkin.

Mediator faqat tomonlarning roziligi bilan faoliyat yuritadi. U tomonlarni fuqarolik-huquqiy nizolarda mediatsiyaning mohiyati va huquqiy oqibatlari haqida xabardor qilishi hamda mediatsiyani vijdonan, shaxsan, bevosita va tomonlarga nisbatan betaraf holda olib borishi shart.

Mediator mediatsiya jarayonida yuzaga keladigan maslahatga ehtiyoj, ayniqsa huquqiy maslahat zarurati haqida tomonlarni ogohlantirishi, shuningdek



mediatsiya natijasini amalga oshirishni ta'minlash uchun uni qanday shaklda rasmiylashtirish zarurligini tushuntirishi kerak

Mediator mediatsiyaning boshlanishini, uning to'g'ri davom ettirilganligini ko'rsatuvchi holatlarni hamda yakunini hujjatlashtirishi kerak.

Mediatsiyaning boshlanishi bu - tomonlar nizoni mediatsiya orqali hal qilishga kelishib olgan vaqt hisoblanadi. Mediatsiya tomonlardan biri yoki mediator uni davom ettirishni istamasligini bildirganida yoki natijaga erishilganida tugaydi. Tomonlarning talabiga bilan mediator mediatsiya natijasini va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan choralarni yozma ravishda qayd etishi kerak. Mediator o'z yozuvlarini mediatsiya tugaganidan keyin kamida yetti yil davomida saqlashi shart. Tomonlarning talabiga ko'ra u ushbu yozuvlarning nusxasini ularga taqdim etishi kerak boladi.

SINGAPUR DAVLATIDA MEDIATSIYA INSITITUTI O'RNI

Singapur davlati mediatsiya sohasida yuqori darajada rivojlangan va tartibga solingan institutga bo'lib, uni mintaqaviy nizolarni hal qilish markazi sifatida qaraladi. Mediatsiya fuqarolik, tijorat va ba'zi xalqaro nizolarni samarali va tejamkor tarzda hal qilish vositasi sifatida qaraladi. Hukumat mediatsiyani faol qo'llab-quvvatlaydi va sud tizimining ishlar hajmini kamaytirish, nizolarni taraflarning o'zaro kelishuvi bilan hal qilish va ijobiy muloqotni rivojlantirish maqsadida uni targ'ib qiladi. 1997-yilda Singapore Mediation Centre (SMC) (Singapur Mediatsiya Markazi (SMC)) tashkil etilgan. Ushbu markaz tijorat va shartnomaviy nizolarni hal qilish uchun professional mediatsiya xizmatlarini taqdim etgan. 2014-yilda ishga tushirilgan **Singapore International Mediation Centre (SIMC)** xalqaro va chegaralararo tijorat nizolarini hal qilishga
SJIF:5.219



ixtisoslashgan markaz tashkil qilingan. Singapurning global mediatsiya markazi sifatidagi mavqeini oshirdi. Ushbu institutlar standartlashtirilgan protseduralar, malakali mediatorlar va axloqiy qoidalarni ta'minlab, mediatsiya jarayonlarining ishonchliligi va samaradorligini kafolatlaydi. Singapurda mediatsiya nizolarni tezkor va samarali hal qiladi. Mamlakatning tarafsiz va ishonchli nizolar markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi. Bu institut sudlar yukini kamaytiradi, adolatga kirish imkoniyatini oshiradi va konstruktiv muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Strukturali, ijro etiladigan va professional mediatsiya xizmatlari Singapurda adolat, samaradorlik va moslashuvchanlikni uyg'unlashtiradi. Singapurda mediatsiya instituti nizolarni hal qilishning markaziy vositasi sifatida faoliyat yuritadi. U huquqiy tartibga solish, professional standartlar va institut qo'llab-quvvatlashi orqali tomonlar o'rtasida ijobiy kelishuvlarni ta'minlaydi hamda Singapurning Osiyodagi yetakchi mediatsiya markazi sifatidagi mavqeini saqlashga xizmat qiladi.

(New York Convention).

“The Singapore Convention on Mediation has followed similar steps to the New York Convention in becoming a successful international convention. Introduced in 2020, as of May 2025, the Convention has achieved 57 signatories and 18 ratifications.² Still, there are lingering doubts or concerns about how the Convention will actually work and what obstacles lie ahead. This is also due to the fact that ratifying states have yet to establish solid databases or publicly available information about the challenges encountered or enforcement processes enacted under the Convention. However, if the predicted uncertainties or ambiguities can be eradicated in advance, signatory States will be more willing to proceed with



ratification confidently. Scholars have raised concerns about the interpretation of Article 5 of the Convention, which provides for the refusal of enforcement of an international mediated settlement agreement ('iMSA') under certain circumstances. Such concerns will probably be raised in the domestic courts of enforcing fora, which will prolong procedures and increase costs. As a preventive measure, Professor Ben Köhler suggests focusing on party autonomy to mitigate uncertainty,³ because it aligns with the core legal principles of many enforcing fora. To better implement party autonomy in mediation to achieve the production of enforceable iMSAs under the Convention, the support of mediation institutions may be required. The fact that parties and mediators are the most crucial players in international mediation does not necessarily undermine the importance of the role of administering institutions, as we have seen with the evolving arbitral institutions and their roles in international arbitration. A mediation institution's goal of delivering an enforceable iMSA under the auspices of the Convention will benefit all participants in mediation by streamlining the process with confidence. This article proposes expanding the role of mediation institutions to include ensuring the enforceability of iMSAs under the Convention. Section II reviews scholars' concerns regarding uncertainty under Article 5 of the Convention. “

Ushbu ma'lumotda Singapurdagi mediatsiya insituti to'g'risida ma'lumot berilgan. Ushbu ma'lumotni tarjima qilganimizda **Singapur Mediatsiya Konventsiyasi** New York Konventsiyasiga o'xshash yo'lni bosib o'tgan holda muvaffaqiyatli xalqaro konventsiya sifatida shakllangan. 2020-yilda joriy etilgan Konventsiyaga 2025-yil may oyiga kelib 57 ta imzo va 18 ta ratifikatsiya amalga oshirilgan. Konventsiya amalda qanday ishlashi va oldinda qanday to'siqlar

SJIF:5.219



mavjudligi borasida hali ham shubha va xavotirlar mavjud. Buning sababi, ratifikatsiya qilgan davlatlar hali mustahkam ma'lumotlar bazasi yaratmagan yoki Konventsiya doirasida yuzaga kelgan muammolar va ijro jarayonlari haqida jamoatga ochiq ma'lumot bermaganligidadir. Biroq, agar kutilayotgan noaniqliklar yoki chalkashliklar oldindan bartaraf etilsa, imzo qo'ygan davlatlar ratifikatsiyani ishonch bilan amalga oshirishga tayyor bo'ladi.

Olimlar Konventsiya 5-moddasini talqin qilish borasida xavotir bildirgan, chunki xalqaro mediatsiya natijasida tuzilgan kelishuvni ("iMSA") ma'lum sharoitlarda ijro etishni rad etishni nazarda tutilgan. Bunday xavotirlar ehtimol ijro qiluvchi davlatlarning mahalliy sudlarida ham paydo bo'lishi mumkin, bu esa protseduralarni cho'zadi va xarajatlarni oshiradi. Profilaktik choralar sifatida professor Ben Köhler noaniqlikni kamaytirish uchun tomonlarning avtonomiyasiga e'tibor qaratishni tavsiya qiladi, chunki bu ko'plab ijro qiluvchi yurisdiksiyalarning asosiy huquqiy tamoyillari bilan mos keladi. Konventsiyaga binoan ijro qilinadigan iMSAlarni yaratish maqsadida mediatsiyada tomonlarning avtonomiyasini yaxshiroq tatbiq etish uchun mediatsiya institutlarining qo'llab-quvvatlashi talab qilinishi mumkin. Tomonlar va mediatorlar xalqaro mediatsiyada eng muhim ishtirokchilar bo'lishiga qaramay, boshqaruvchi institutlarning roli ahamiyatsiz hisoblanmaydi. Bu holat bizga xalqaro arbitrajda arbitral institutlarning rivojlanishi va ularning roldan ma'lum bo'lgan. Mediatsiya institutining Konventsiya doirasida ijro qilinadigan iMSAlarni taqdim etish maqsadi mediatsiyada ishtirok etayotgan barcha tomonlar uchun jarayonni ishonch bilan soddalashtirish va tezlashtirish imkonini beradi. Ushbu maqola mediatsiya institutlarining rolini kengaytirib, Konventsiyaga binoan iMSAlarning ijro



etilishini ta'minlash masalasini taklif qiladi. II-bo'limda Konventsiya 5-moddasi doirasida yuzaga keladigan noaniqliklar bo'yicha olimlarning xavotirlari ko'rib chiqiladi.

Konventsiyaning 5(1)(e)-moddasiga ko'ra, vakolatli ijro organi, agar mediator tomonidan unga nisbatan qo'llaniladigan standartlar jiddiy ravishda buzilgan bo'lsa, xalqaro mediatsiya natijasida tuzilgan kelishuvni (iMSA) ijro etishni rad etishi mumkin. Ushbu norma sharhlovchilar va olimlar tomonidan ayrim xavotirlarni keltirib chiqargan, chunki bunday qo'llaniladigan standartlarni aniqlash va talqin qilishda noaniqlik mavjud. Bu esa qo'shimcha (yordamchi) nizolarning yuzaga kelishiga olib kelib, asosiy nizoning cho'zilishiga va xarajatlarning oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, mediatsiyani boshlashdan oldin bunday noaniqliklar natijasida kelib chiqadigan qo'shimcha nizolarning oldini olish choralariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Turli yurisdiksiyalarda mediatsiya standartlarining ko'pligi Konventsiyaning xalqaro tijorat nizolarini hal qilish mexanizmi sifatidagi maqsadiga to'sqinlik qilishi mumkin. Alohida davlatlar va ADR institutlari o'ziga xos mediatsiya tartiblari va standartlariga amal qilishi mumkin, bu esa iMSAlarning ijro etilishiga ta'sir ko'rsatadi. Mediatsiya standartlarini global miqyosda chuqur o'rganish turli huquqiy tizimlarda mediatsiya tushunchasining turlicha talqin qilinishini anglashga yordam beradi hamda davlatlar va ADR institutlari o'rtasida uyg'unlashgan mediatsiya standartlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

5(1)(e)-moddasida qo'llaniladigan standartlar turli tashkilotlar, masalan mediatsiya yoki arbitraj institutlari tomonidan ishlab chiqilgan mediatorlarning etik



qoidalari hamda davlatlarning qonunchiligini o‘z ichiga olishi mumkin. Biroq ular majburiy kuchga ega bo‘lmagan tavsiyalar yoki eng yaxshi amaliyot (best practices)ni qamrab olmasligi mumkin. Bundan tashqari, ko‘plab yurisdiksiyalarda mediatorlar uchun mustahkam xulq-atvor kodeksi mavjud emas, bu esa 5(1)(e)-moddani amalda qo‘llashni faqat mediator muayyan professional maqomga ega bo‘lgan hollardagina imkonli qiladi.

In the United States, where the Uniform Mediation Act is in effect, mediators have the option not to testify in proceedings involving the enforcement of a mediated settlement agreement (‘MSA’). 39 The Model Law acknowledges an exception to mediation confidentiality in cases where ‘disclosure is required under the law or for implementation or enforcement of a settlement agreement.’ 40 The EU Mediation Directive contains similar exceptions, 41 based on the notion that the importance of uncovering the truth outweighs the commitment to maintaining mediation confidentiality, especially in cases where fraud or duress is alleged to invalidate an MSA.42 The scope of mediation privileges and confidentiality varies widely across different jurisdictions,43 creating significant uncertainty for the participants in mediation.44 The law and regulations also differ considerably regarding who holds the privilege, especially in terms of whether mediators have a separate privilege or if the parties involved can waive it.45 Institutional rules provide extensive confidentiality clauses that stipulate almost absolute confidentiality, subject to the limits of the lex fori. 46 For instance, both the Mediation Rules of the International Chamber of Commerce (‘ICC’) and Singapore International Mediation Centre (‘SIMC’) Rules provide that ‘unless required by applicable law or unless all parties and the mediator agree otherwise in

SJIF:5.219



writing, the mediator shall not give testimony in any judicial, arbitral, or similar proceedings concerning any aspect of the mediation proceedings.’ 47 When parties choose institutional mediation, they agree to adhere to these confidentiality clauses. 48 Institutions like the ICC have clauses to guarantee strict confidentiality even after the termination of mediation.

Ya’ni Amerika Qo’shma Shtatlarida, **Yagona Mediatsiya Qonuni (Uniform Mediation Act)** amal qiladigan sharoitda, mediatorlar mediatsiya natijasida tuzilgan kelishuvni (“MSA”) ijro etish bilan bog‘liq sud jarayonlarida guvohlik berishdan bosh tortish huquqiga ega. Model qonun mediatsiya maxfiyligiga istisno holatni ham tan oladi, ya’ni “ma’lumotni oshkor etish qonun talabiga binoan yoki kelishuvni amalga oshirish yoki ijro etish uchun zarur bo‘lgan hollarda” bunga yo‘l qo‘yiladi.

Yevropa Ittifoqining Mediatsiya Direktivasida ham shunga o‘xshash istisnolar mavjud bo‘lib, ular haqiqatni aniqlash zarurati mediatsiya maxfiyligini saqlash majburiyatidan ustun turadi, degan tamoyilga asoslanadi. Ayniqsa, firibgarlik yoki majburlash (tazyiq) sababli mediatsiya kelishuvi haqiqiy emas deb topilishi mumkin bo‘lgan holatlarda bu muhim ahamiyat kasb etadi.

Mediatsiyaga oid imtiyozlar va maxfiylik doirasi turli yurisdiksiyalarda sezilarli darajada farq qiladi, bu esa mediatsiya ishtirokchilari uchun katta noaniqliklarni yuzaga keltiradi. Shuningdek, ushbu imtiyoz kimga tegishli ekanligi borasida ham qonunchiliklar o‘rtasida jiddiy tafovutlar mavjud — masalan, mediator alohida imtiyozga egami yoki tomonlar uni bekor qilishi (voz kechishi) mumkinmi, degan masalalarda turlicha yondashuvlar mavjud.



Institutsional qoidalar odatda keng qamrovli maxfiylik normalarini belgilaydi va ular deyarli mutlaq maxfiylikni nazarda tutadi, biroq bu holat sud yurisdiksiyasi qonunchiligi (lex fori) bilan cheklanadi. Masalan, Xalqaro Savdo Palatasining (ICC) Mediatsiya qoidalari hamda Singapur Xalqaro Mediatsiya Markazi (SIMC) qoidalarida shunday norma mavjudki, “amaldagi qonunchilik talab qilmagan yoki barcha tomonlar hamda mediator yozma ravishda boshqacha kelishib olmagan taqdirda, mediator mediatsiya jarayonining biror jihati yuzasidan sud, arbitraj yoki shunga o‘xshash jarayonlarda guvohlik bermaydi.”

Tomonlar institutsional mediatsiyani tanlaganlarida, ular ushbu maxfiylik qoidalariga rioya qilishga rozilik bildiradilar. ICC kabi institutlar mediatsiya tugaganidan keyin ham qat’iy maxfiylikni ta’minlashga qaratilgan qoidalarni o‘z ichiga oladi.

Judicial deference to the decisions of institutions — Sudlarning institutlar qarorlariga hurmat (yoki e’tibor) bilan munosabatda bo‘lishi

To establish a clear line for mediation institutions to proactively address uncertainties arising in the enforcement of iMSAs under the Convention, 54 it is worth identifying the kind of procedural assistance or decisions made by the institutions that would not be reviewed, or that would be granted deference, by an enforcing court. A number of jurisprudential precedents pertaining to judicial deference to, and the reviewability of, decisions rendered by arbitral institutions offer a limited but insightful resource for understanding what might happen in this context. These insights are particularly important for arbitral institutions that have dual functionality— providing both arbitration and mediation services—



necessitating differentiation in the treatment of arbitration and mediation to ensure the enforceability of the outcome.

Konventsiya doirasida xalqaro mediatsiya natijasida tuzilgan kelishuvlarning (iMSA) ijro etilishi jarayonida yuzaga keladigan noaniqliklarni mediatsiya institutlari tomonidan faol ravishda bartaraf etish uchun aniq chegarani belgilash maqsadida, institutlar tomonidan ko‘rsatiladigan qanday protsessual yordam yoki qabul qilinadigan qarorlar ijro etuvchi sud tomonidan qayta ko‘rib chiqilmasligi yoki ularga hurmat (deference) bilan yondashilishi aniqlanishi muhimdir.

Arbitraj institutlari tomonidan qabul qilingan qarorlarga nisbatan sudlarning hurmat bilan munosabatda bo‘lishi va ularni qayta ko‘rib chiqish imkoniyati bilan bog‘liq bir qator sud amaliyoti (yurisprudensiya) misollari ushbu masalani tushunishda cheklangan bo‘lsa-da, muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu xulosalar ayniqsa ikki xil funksiyani — ya’ni arbitraj va mediatsiya xizmatlarini birgalikda taqdim etuvchi arbitraj institutlari uchun muhimdir. Bunday hollarda arbitraj va mediatsiyani alohida yondashuv asosida ko‘rib chiqish zarur bo‘lib, bu yakuniy natijaning ijro etilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Raffineries v ICC va Opinter v Dacomex ishlarida Fransiya sudlari arbitraj qoidalariga muvofiq muayyan holatlarda institutlar tomonidan arbitrlarni tayinlash bilan bog‘liq qarorlarni qayta ko‘rib chiqilmaydigan (ya’ni sud nazoratiga tortilmaydigan) deb topgan. Sudlar bunday qarorlarning qayta ko‘rib chiqilmasligini ularning ma’muriy va yurisdiksiyaviy bo‘lmagan tabiatiga asoslagan.



Birinchi ishda sud institut qarorining mohiyatini sharhlab, uni nizoning mazmuni bo'yicha qaror qabul qilish vakolatidan farqlash lozimligini ta'kidlagan. Chunki bunday qarorlar sud yoki arbitraj tribunali qarorlariga nisbatan talab qilinadigan darajadagi protsessual kafolatlarni (due process) talab etmaydi.

Opinter ishida ham sud ushbu yondashuvni qo'llab-quvvatlab, institut faoliyatining yurisdiksiyaviy bo'lmaganligi sababli uning harakatlari ham yurisdiksiyaviy xususiyatga ega emas degan xulosaga kelgan. Shu sababli arbitraj instituti tomonidan asoslantirilgan (motivatsiyalangan) qaror chiqarish majburiy emas. Xuddi shuningdek, qabul qilingan institutsional arbitraj qoidalariga muvofiq vakolat doirasida muddatni uzaytirish ham yurisdiksiyaviy bo'lmagan harakat sifatida baholangan. Sud bunda qarorning mazmunidan ko'ra, uning kelib chiqish manbai — ya'ni arbitraj institutining ma'muriy organ sifatidagi faoliyatiga ko'proq e'tibor qaratgan.

“Mediation institutions can be categorised into two distinct forms: specialised mediation institutions without arbitration services and arbitral institutions offering mediation services. Specialised mediation institutions, which have been developed over several decades with a national and regional focus,⁷⁴ can provide parties with a mediation process that is highly attuned to local culture or dispute practice, at relatively lower costs compared to arbitral institutions providing mediation services.⁷⁵ However, owing to its reliance on a more localised and limited selection of mediators, specialised mediation institutions may have the drawback of being less effective in handling complex international disputes. ⁷⁶ On the other hand, arbitral institutions providing mediation services, such as the ICC and the LCIA, have only added mediation capabilities in the past decade.⁷⁷ Such arbitral



institutions can offer a one-stop combination of mediation and arbitration without referring to another institution to administer the dispute resolution process. However, they may not be as experienced in coordinating mediation or in selecting mediators, particularly in situations where the parties cannot agree on a mediator. 78 Administrators at arbitral institutions continue to uphold the characteristics of arbitration due to their limited experience in handling mediation; as a result, mediation may likely evolve into a more formalistic proceeding with higher costs.” Ushbu ma’lumotda shu ko’satiladiki, Mediatsiya institutlarini ikki alohida turga ajratish mumkin: arbitraj xizmatlarini taqdim etmaydigan ixtisoslashgan mediatsiya institutlari va mediatsiya xizmatlarini ham ko’rsatuvchi arbitraj institutlari.

Ixtisoslashgan mediatsiya institutlari bir necha o’n yillar davomida milliy va mintaqaviy darajada rivojlangan bo’lib, ular tomonlarga mahalliy madaniyat va nizolarni hal qilish amaliyotiga moslashgan mediatsiya jarayonini, arbitraj institutlariga nisbatan nisbatan arzonroq xarajatlar bilan taqdim etishi mumkin. Biroq, mediatorlar tanlovi ko’proq mahalliy va cheklangan bo’lgani sababli, bunday institutlar murakkab xalqaro nizolarni hal qilishda kamroq samarali bo’lishi mumkin. Boshqa tomondan, mediatsiya xizmatlarini taqdim etuvchi arbitraj institutlari, masalan ICC va LCIA, faqat so’nggi o’n yillikda mediatsiya imkoniyatlarini joriy etgan. Bunday arbitraj institutlari mediatsiya va arbitrajni birlashtirgan “yagona markaz” (one-stop) xizmatni taklif etib, nizoni hal qilish jarayonini boshqa institutga murojaat qilmasdan amalga oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ular mediatsiyani muvofiqlashtirish yoki mediatorlarni tanlash borasida, ayniqsa tomonlar mediator bo’yicha kelisha olmagan hollarda, SJIF:5.219

yetarli tajribaga ega bo‘lmasligi mumkin. Arbitraj institutlaridagi administratorlar mediatsiya bilan ishlash tajribasi cheklanganligi sababli ko‘pincha arbitrajga xos yondashuvni saqlab qoladilar. Natijada mediatsiya jarayoni tobora rasmiylashib borishi va xarajatlarning oshishi ehtimoli mavjud.

Mediation Institutions: Unexplored Decisions for Judicial Deference

SIMC Mediatsiya qoidalari (2024) ga ko‘ra, SIMC mediatorni tayinlash, mediatsiya o‘tkaziladigan joy va tilni belgilash, tegishli muddatlarni o‘rnatish hamda mediatsiyadan oldingi uchrashuvni tashkil etish jarayonlarida yordam ko‘rsatish vakolatiga ega. Agar mediator bo‘yicha kelishuv mavjud bo‘lmasa, SIMC mediatsiya boshlangan kundan e‘tiboran 10 kun ichida bo‘lajak mediatorning xususiyatlarini inobatga olgan holda mediator tayinlashi mumkin. Shuningdek, agar tomonlardan biri mediator tayinlanishiga nisbatan asosli e‘tiroz bildirsa va bu e‘tiroz xabarnoma olinganidan keyin 10 kun ichida taqdim etilsa, SIMC boshqa mediatorni tayinlashi mumkin. Bundan tashqari, mediatsiya jarayonida nizolar yoki manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, yoki mediator yoki tomonlar tomonidan alohida (favqulodda) holatlar ko‘rsatilsa, mediatorni almashtirish ham mumkin. Agar mediatsiya o‘tkaziladigan joy va til bo‘yicha kelishuvga erishilmagan bo‘lsa, tomonlar institut tomonidan belgilangan muddatlarda bunday kelishuvni taqdim etmagan taqdirda, SIMC ushbu masalalarni mediator bilan maslahatlashgan holda mustaqil ravishda belgilaydi. SIMC, shuningdek, zarur hollarda mediatsiya jarayonini yanada samarali tashkil etish



maqsadida turli shakllarda mediatsiyadan oldingi uchrashuv (pre-mediation conference) o‘tkazishni ham tavsiya qilishi mumkin.

“During the pre-mediation conference or even before, institutions may adopt several measures to optimise the process of informing parties and mediators of enforceability risks under the Convention, including: first, allowing a mediation officer with expertise in the Convention to join the premediation conference to suggest ways to reduce enforceability risks in the context of the specific dispute; second, issuing guidelines or notes on best practices for mediation users, which may include suggesting that the parties agree on choice of law issues where uncertainties may arise; and third, creating specific provisions mandating that the parties agree on the choice of law regarding the uncertainties discussed above. The first option, of allowing a mediation officer with expertise in the Convention to join the pre-mediation conference to suggest ways to reduce enforceability risks in the context of the specific dispute, would alleviate the burden on the parties and mediators while catering to the specifics of the dispute without exceeding the administrative role of the institution. This would also expand the pool of mediators available to the parties, allowing them to consider a larger cohort of highly experienced industry professionals. However, the cost of retaining such mediation experts, who are often also qualified lawyers, can be burdensome for mediation institutions, potentially leading to increased administration costs. Additionally, it is crucial that the mediation expert’s role is strictly limited to providing preliminary guidance to the parties and the mediator, without recommending specific jurisdictional laws or mediator standards. This is necessary to ensure the efficacy of the administrative nature of the institution and to avoid actions that could be



subject to judicial review. Here, mediation institutions may consider making the involvement of mediation experts an opt-in mechanism within their rules to address the concerns of disputants in cost-sensitive, low-stakes disputes.” Ya’ni Mediatsiyadan oldingi uchrashuv davomida yoki hatto undan avval ham, institutlar Konventsiya doirasida ijro etilish bilan bog’liq xavflar haqida tomonlar va mediatorlarni xabardor qilish jarayonini optimallashtirish uchun bir qator choralarni qo’llashi mumkin. Jumladan: birinchidan, Konventsiya bo’yicha malakaga ega mediatsiya mutaxassisini mediatsiyadan oldingi uchrashuvga jalb qilib, aniq nizoga oid ijro etilish xavflarini kamaytirish yo’llarini taklif etish; ikkinchidan, mediatsiya ishtirokchilari uchun eng yaxshi amaliyotlar bo’yicha yo’riqnoma yoki tavsiyalar ishlab chiqish, bunda noaniqliklar yuzaga kelishi mumkin bo’lgan hollarda qo’llaniladigan huquqni tanlash bo’yicha kelishuvni tavsiya etish; uchinchidan, yuqorida qayd etilgan noaniqliklar bo’yicha qo’llaniladigan huquqni tanlashni tomonlar uchun majburiy qilib belgilovchi maxsus qoidalarni joriy etish.

Birinchi variant — ya’ni Konventsiya bo’yicha malakali mediatsiya mutaxassisini mediatsiyadan oldingi uchrashuvga jalb etish va u orqali aniq nizoda ijro etilish xavflarini kamaytirish bo’yicha takliflar berish — tomonlar va mediatorlar zimmasidagi yukni yengillashtiradi hamda nizoning o’ziga xos jihatlarni hisobga olgan holda institutning ma’muriy roldan chetga chiqmagan holda amalga oshiriladi. Bu, shuningdek, tomonlar uchun mediatorlar doirasini kengaytiradi va ularga yuqori malakali mutaxassislar orasidan tanlash imkonini beradi.



Biroq, bunday mediatsiya mutaxassislarini jalb etish, ular ko‘pincha malakali yuristlar ham bo‘lganligi sababli, institutlar uchun qo‘shimcha xarajatlarni keltirib chiqarishi va ma‘muriy xarajatlarning oshishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, mediatsiya mutaxassisining roli qat‘iy ravishda faqat dastlabki yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish bilan cheklanib, u aniq yurisdiksiya huquqi yoki mediator standartlarini tavsiya qilmasligi lozim. Bu institutning ma‘muriy xususiyatini saqlab qolish va sud tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lgan harakatlarning oldini olish uchun zarurdir. Shu nuqtai nazardan, mediatsiya institutlari mediatsiya mutaxassislarini jalb etishni o‘z qoidalarida ixtiyoriy (“opt-in”) mexanizm sifatida joriy etishni ko‘rib chiqishi mumkin, ayniqsa kam qiymatli va xarajatlarga sezgir nizolar bo‘yicha tomonlarning manfaatlarini hisobga olish maqsadida. iMSAlarning shartnomaviy jihatlari uchun qo‘llaniladigan huquqni to‘g‘ri belgilash, mediatorlar uchun amal qiladigan standartlarni aniqlash hamda mediatsiya maxfiyligi tushunchasini yanada aniqroq shakllantirish Konventsiya foydalanuvchilariga iMSAlarni ijro etishda huquqiy aniqlikni ta‘minlash uchun zarurdir.

Mediatsiya institutlari ushbu masalalar bo‘yicha tomonlarni xabardor qilish orqali o‘z rolini kengaytirish uchun bir qator imkoniyatlarni ko‘rib chiqishlari mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Germaniyada mediatsiya instituti nizolarni muqobil hal etishning samarali vositasi sifatida jamiyatda muhim o‘rin egallagan. U nafaqat sud tizimining samaradorligini oshiradi, balki tomonlar o‘rtasida konstruktiv muloqot va o‘zaro ishonchni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Kelgusida



mediatsiya institutining yanada rivojlanishi va qo‘llanish sohasining kengayishi Germaniya huquqiy tizimining barqarorligi va adolatliligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib qoladi. Mediatsiyaning Germaniyadagi yana bir muhim jihati — mediatorlarning kasbiy tayyorgarligi va etik standartlarining yuqori darajada tartibga solinganidir. Mediatorlar mustaqil va xolis bo‘lishi, tomonlarga teng munosabatda bo‘lishi hamda ularning manfaatlarini muvozanatli tarzda hisobga olishi shart. Shu bilan birga, mediatsiya jarayonida tomonlarga zarur hollarda huquqiy maslahat olish tavsiya etiladi, bu esa yakuniy kelishuvning qonuniy va barqaror bo‘lishini ta‘minlaydi.

Singapurda mediatsiya instituti zamonaviy nizolarni hal etish tizimining ajralmas va samarali qismi sifatida shakllangan. Singapore Mediation Centre va Singapore International Mediation Centre kabi institutlar orqali mediatsiya nafaqat milliy, balki xalqaro darajada ham keng qo‘llanilmoqda. Bu esa Singapurning Osiyoda va global miqyosda nizolarni muqobil hal etish markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlamoqda. Singapurda mediatsiyaning rivojlanishida Mediation Act 2017 va Singapore Convention on Mediation muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu huquqiy tizim mediatsiya natijalarining ijro etilishini ta‘minlab, tomonlar uchun huquqiy aniqlik va ishonchni kuchaytiradi. Ayniqsa, xalqaro mediatsiya kelishuvlarini tan olish va ijro etish mexanizmlarining mavjudligi Singapurni investorlar va xalqaro biznes subyektlari uchun jozibador qiladi.

Shu bilan birga, mediatsiya institutlarining faol roli — mediatorlarni tayinlash, protsessual yordam ko‘rsatish, maxfiylikni ta‘minlash va tomonlarni huquqiy xavflar haqida xabardor qilish — nizolarni samarali hal etishda muhim



ahamiyatga ega. Institutlar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar va amaliyotlar mediatsiya jarayonining shaffofligi, tezkorligi va moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Umuman olganda, Singapurda mediatsiya instituti sud tizimiga muqobil sifatida emas, balki uni to'ldiruvchi va yanada samarali qiluvchi mexanizm sifatida rivojlangan. U taraflar o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi, xarajatlarni kamaytiradi va nizolarni konstruktiv tarzda hal qilish imkonini beradi. Kelgusida mediatsiya institutlarining roli yanada kengayib, xalqaro huquqiy hamkorlik va nizolarni hal etishda muhim vosita bo'lib qolishi kutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1) <https://www.ris.bka.gv.at/geltendefassung.wxe?abfrage=bundesnormen&gesetzesnummer=20002753>.

2) Михель Дина Евгеньевна “ РАЗВИТИЕ МЕДИАЦИИ В ГЕРМАНИИ КАК СОЦИАЛЬНОГО И ПРАВОВОГО ИНСТИТУТА”.

3) Muhr M. Die geschichtliche Entwicklung Mediation in Deutschland und Russland. Trumau, 2006.

4) Singapore Management University “The Role of Mediation Institutions: Ensuring Enforceability under Article 5 of the Singapore Convention on Mediation” 2025 Wooseok.

5) This work is licensed under a Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivative 4.0 International Licence.

6) <https://drr.scholasticahq.com/>.



- 7) ICC Arbitration Rules 2021 Article 34.
- 8) SIMC Mediation Rules 2024 rule 6.1 ('SIMC Rules').
- 9) ICC Mediation Rules 2014 rule 10.6 ('ICC Rules').
- 10) Michael McIlwrath and John Savage, International Arbitration and Mediation: A Practical Guide (Kluwer Law International, 2010) [1-203].